

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI



“Iqtisodiyot” kafedrası
“Mikroiqtisodiyot” fanidan

KURS ISHI

Mavzu: Ishlab chiqarish xarajatlari

Bajardi: “Texnika” fakulteti “Iqtisodiyot” yo’nalishi
2 – kurs 2 – guruh talabasi Eshonov Saidbek

Ilmiy rahbar: Ermatov I.

Mundarija

1. Kirish.....4
2. Xarajatlarto'g'risida umumiy tushunchalar.....6
3. Firmaning xarajatlari.....8
4. Doimiy va o'zgaruvchan xarajatturlari.....13
5. Xarajatlarning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar...17
6. Xulosa.....32
7. Foydalanilgan adabiyotlar33

Kirish

Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan joriy yilning Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili deb e'lon qilingani mamlakatimizda mazkur sohaning yanada ravnaq topishiga keng yo'l ochmoqda.

“Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili” Davlat dasturining izchillik bilan hayotga tatbiq etilayotgani samarasida yurtimizda yanada qulay biznes-muhit yaratilayapti. Xususiy mulkchilikning ustuvorligini mustahkamlashga yo'naltirilgan me'yoriy hujjatlar takomillashayotgani bunda muhim omil bo'layapti.

Davlatimiz rahbarining shu yil 4 aprelda qabul qilingan “Tadbirkorlik subyektlarini tekshirishlarni yanada qisqartirish va ular faoliyatini nazorat qilishni tashkil etish tizimini takomillashtirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi farmoniga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyatida o'tkaziladigan tekshirishlar tartibi yanada takomillashtirildi. Jumladan, yangi tashkil qilingan kichik tadbirkorlik subyektlarining moliya-xo'jalik faoliyati ular davlat ro'yxatiga olingan paytdan boshlab dastlabki uch yil mobaynida rejali soliq tekshiruvlaridan o'tkazilmaydi. Avvalgi me'yorlarga ko'ra, yangi tashkil etilgan mikrofirmalar, kichik korxonalar moliya-xo'jalik faoliyati ular davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran ikki yil mobaynida rejali tekshiruvlardan o'tkazilmasdi. Bu muddatning yana bir yilga uzaytirilgani o'z biznesini yo'lga qo'yayotganlar uchun katta imkoniyatdir.

Bundan tashqari, 2011 yilning 1 apreldan 2014 yilning 1 aprelegacha bo'lgan davrda soliqlarni va boshqa majburiy to'lovlarni o'z vaqtida to'lab kelayotgan, shuningdek, ishlab chiqarish sur'atlarining barqaror o'sishi va rentabelligini ta'minlayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish taqiqlandi. Ushbu me'yorga binoan tekshirishlarning 2011 yil reja-jadvalidan 627 kichik biznes subyekti chiqarildi. Ya'ni, ularning moliya-xo'jalik faoliyatida tekshirish o'tkazilmaydigan bo'ldi.

Umuman olganda, “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili” Davlat dasturida belgilangan tadbirlar ijrosi bo'yicha joriy yilning aprel-dekabr oylarida soliq idoralari tomonidan tekshirilishi mo'ljallangan kichik biznes subyektlarining 21 foizi tekshirishlar rejasidan chiqarildi.

Prezidentimizning shu yil 12 mayda qabul qilingan “Tadbirkorlik subyektlarini tashkil etish va davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori bilan tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatdan o'tkazish borasida qator qo'shimcha yengilliklar yaratildi.

Tadbirkorlik subyektlari bu kabi imkoniyatlardan unumli foydalanishi uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan ularga zarur qulayliklar yaratilmoqda. Jumladan, o'zaro sifatli elektron axborot almashinuvini joriy etish, davlat soliq xizmati organlari ishining samaradorligini oshirishga qaratilgan o'ttizga yaqin dastur amaliyotga tatbiq etila boshlandi hamda soliq to'lovchilarga o'ndan ortiq interaktiv, ya'ni qog'ozsiz, masofadan turib xizmatlar ko'rsatilayotir.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda bozor iqtisodiyotining asosi bo'lgan xususiy mulk ustuvorligini mustahkamlaydigan barqaror qonunchilik bazasi yaratilganini qayd etish zarur. O'rta mulkdorlar sinfini shakllantirish, mamlakat iqtisodiyotini barqaror yuksaltirish, yangi ish o'rinlari yaratish va aholi daromadini oshirishning muhim omili bo'lgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish bo'yicha qulay ishbilarmonlik muhiti hamda ishonchli huquqiy kafolatlar yaratildi.

Natijada so'nggi o'n yilda yalpi ichki mahsulot tarkibida kichik biznes ulushi 31,1 foizdan 52,5 foizga o'sdi, ushbu sohada bandlik darajasi iqtisodiyot tarmoqlarida ish bilan band aholi umumiy sonining 49,7 foizidan 74,5 foizigacha oshdi. Aholi daromadlarining 47 foizdan ziyodi tadbirkorlik faoliyatidan tushgan daromadlar hissasiga to'g'ri keladi.

«Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili» Davlat dasturiga muvofiq joriy yilda tadbirkorlik faoliyatini keng rivojlantirish uchun yanada qulay biznes-muhitni yaratish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar qabul qilindi. Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va ularni muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulash tartibi sezilarli darajada soddalashtirildi hamda bu jarayon yanada ochiqlik kasb etdi. Ro'yxatga olish uchun davlat boji stavkasi ikki barobarga qisqartirildi. Ishchilarning yillik o'rtacha soni 100 kishigacha ko'paytirilgan kichik korxonalar shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari ro'yxati sezilarli darajada kengaytirildi. Kichik biznes subyektlarini davlat xaridlari jarayoniga keng miqyosda jalb qilish mexanizmi ishlab chiqildi va joriy etildi.

1. Xarajatlar to'g'risida umumiy tushunchalar

Milliy Iqtisodiyotdagi ishlab chiqarish birliklari (korxonalar) o'z faoliyati natijalaridan ko'proq daromad olishga xarakat qiladi. Har qanday korxonalar nafaqat o'zining tovarini ancha yuqori baholarda sotishga, balki mahsulot ishlab chiqarish va uni sotishga qilinadigan sarf-xarajatlarni kamaytirishga xam intiladi.

Inson hayot kechirishi uchun moddiy ne'matlar va xizmatlar taqozo qilinadi. Moddiy ne'matlar yaratish o'z navbatida xarajat qilishni taqozo etadi. Har bir korxonalar, firma, (xo'jalik sub'ektlari) tovar ishlab chiqarish uchun ma'lum iqtisodiy resurslar xarajatini talab etadi. Iqtisodiy xarajatlar tushunchasini eng avvalo resurslar cheklanganligini hamda ularni muqobil (alternativ) ishlatish imkoni bilan bog'liq. Masalan, yer resurs sifatida cheklangan. Undan turli maqsadda foydalanish mumkin. Uy qurish, korxonalar qurish, turli ekinlar ekish va h.k. Har bir xo'jalik sub'ekti u yoki bu resursni sotib olib ishlatar ekan, demak bu resursni boshqalar ishlatolmaydi. Resurslarni sotib olgach uni samarali ishlatish uchun harakat qiladilar. Xarajatlar korxonalar, firma faoliyatiga baho berishda, yetakchi ko'rsatkich hisoblanadi. Milliy iqtisodiyotdagi ishlab chiqarish birliklari (korxonalar, firma) o'z faoliyati natijalaridan ko'proq daromad olishga xarakat qiladi. Har qanday korxonalar nafaqat o'zining tovarini ancha yuqori baholarda sotishga, balki mahsulot ishlab chiqarish va uni sotishga qilinadigan sarf-xarajatlarni kamaytirishga ham intiladi.

Tovarlarni sotish baholari asosan korxonalar faoliyatiga bog'liq bo'lmagan tashqi sharoitlar bilan belgilansa, ishlab chiqarish sarf-xarajatlari korxonaning ishlab chiqarish va tayyor tovarlarni sotish jarayonlarini tashkil qilish samaradorligi darajasiga bog'liq. Lekin har qanday tovarni ishlab chiqarish va sotish uchun ma'lum sarf xarajatlar talab etiladi.

Korxonalar faoliyat yuritish jarayonida moddiy va pul xarajatlarini sarflaydilar. Korxonaning umumiy xarajatlari ichida ishlab chiqarish xarajatlari eng katta salmoqqa ega. Ishlab chiqarish xarajatlari majmuasi korxonaga mahsulot ishlab chiqarish qanchaga tushishini ko'rsatadi, ya'ni mahsulotning ishlab chiqarish tannarxini tashkil qiladi.

Korxonalar, shuningdek, mahsulotni sotish bo'yicha xarajatlarni, ya'ni ishlab chiqarishdan tashqari yoki tijorat (tashish, qadoqlash, saqlash, reklama qilish va hokazo) xarajatlarini ham amalga oshiradilar.

Mahsulot (ish, xizmat) tannarxini tashkil qiluvchi xarajatlar iqtisodiy mazmuniga ko'ra, quyidagi elementlarga asosan guruhlariga taqsimlanadi:

- ❖ moddiy xarajatlar;

- ❖ asosiy fondlar amortizasiyasi;
- ❖ mehnatga xaq to'lash bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar;
- ❖ ijtimoiy ehtiyojlarga mo'ljallangan xarajatlar;
- ❖ boshqa xarajatlar.

Moddiy xarajatlar ishlab chiqarish xarajatlarning eng katta qismi bo'lib, umumiy xarajatlarning 60- 80 foizini tashkil qilishi mumkin. Moddiy xarajatlar o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi:

- ❖ xom ashyo va materiallar xarajatlari;
- ❖ texnologik maqsadlar va xo'jalik ehtiyojlari uchun sarflanuvchi yoqilg'i va energiya;
- ❖ xarid qilinuvchi butlovchi qismlar va yarim tayyor mahsulotlar;
- ❖ sotib olingan qadoqlash va o'rov materiallari xarajatlari;
- ❖ mashina va asbob-uskunalarini ta'mirlash uchun ehtiyot qismlar;
- ❖ boshqa korxonalar va tashkilotlar tomonidan ko'rsatiladigan ishlab chiqarish xizmatlari;
- ❖ xizmat davri bir yilgacha bo'lgan kichik qiymatli va tez eskiruvchi predmetlarning eskirishi
- ❖ yoki har bir instrument, inventar, laboratoriya uskunalarini va maxsus kiyim-bosh uchun eng kam oylik
- ❖ ish haqining 50 baravar miqdorigacha qiymati;
- ❖ tabiiy xom ashyodan foydalanish bilan bog'liq soliq, yig'im va boshqa to'lovlar;
- ❖ ishlab chiqarishda bekor turib qolish va sifatsizlik (brak) tufayli yuzaga keladigan yo'qotishlar;
- ❖ tabiiy yo'qotishlar bilan bog'liq bo'lgan yoki aybdor shaxslar mavjud bo'lmagan holda yuzaga
- ❖ keladigan yo'qotishlar.

2. Firmaning xarajatlari

Iqtisodiyotning har qanday subyekti xarajat qilmay turib o'z faoliyatini yurgiza olmaydi. Lekin bu xarajatlar turlicha. Xonadon xarajatini oladigan bo'lsak, u iste'molga ketganidan keyin qaytarilib olinmaydi. Xuddi shuningdek, davlat xarajatlari xam qaytib kelmaydi, chunki u davlat iste'molini qondiradi. Ammo bundan davlat korxonalari, firmalarning xarjati bundan mustasnodir. Firmaning xarajatining o'ziga hosligi shundan iboratki bu o'rni qoplanadiga, ya'ni Tovar va xizmatlar sotilgach unga qaytib pul shaklida keladigan xarajatlardir. Firma qilgan **bir yo'la** xarajat uning o'z ishiga qo'ygan kapitalidir. Bu ishlab chiqarish jarayonida joriy xarajatlarga aylanadi. Demak, firma xarajati, bu uning kapitalining sarflanishi hisoblanadi. Xarajatsiz daromad topib bo'lmasligi bu iqtisodiyotning aksiomasidir. Daromad olish uchun firma, alohida bir shaxs, barcha subyektlar xarajat qilishi muharrar, chunki bu ishlab chiqarish resurslarini talab qiladi. Resurslar esa albatta ehson yoki suvtekin emas, ularni faqat bozor narxida sotib olish mumkin. Shu bois xarajat qilish bu firma uchun foyda olishning asosiy sharti, bo'g'iniga aylanadi. Firmaga qo'yilgan kapital ishlab chiqarish jarayonida joriy, kundalik, oylik va privovardida yillik xarajatlariga aylanadi.

Qisqacha qilib aytganda **Firmaning xarajati- bu tovar va xizmatlar yaratish va ularni sotish bilan bog'liq bo'lgan sarflardir.** Firmaning xarajatlari safiga biz firmaning ishlab chiqarish xarajatlarini kiritishimiz mumkin.

2.1 Ishlab chiqarish xarajatlari tushunchasi va uning tarkibi

Ishlab chiqarish xarajatlari deganda tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish va iste'molchilarga yetkazib berishga qilinadigan barcha sarflar tushuniladi. Ishlab chiqarish sarf-xarajatlari tarkibiga xom ashyo, asosiy va yordamchi materiallar, yonilg'i va energiya uchun qilingan xarajatlar, asosiy kapital amortizasiyasi, ish haqi va ijtimoiy sug'urtaga ajratmalari, foiz to'lovlari va boshqa xarajatlar kiradi. Ishlab chiqarishga qilingan barcha sarf-xarajatlarning puldagi ifodasi mahsulot tannarxini tashkil qiladi. Ishlab chiqarish xarajatlarini ikkiga bo'lib o'rganish mumkin:

-bevosita ishlab chiqarish xarajatlari

-muomala xarajatlari

(1-chizma). Tovar birligining qiymatida ishlab chiqarish xarajatlari faqat uning bir qismini tashkil qiladi. Ishlab chiqarish xarajatlari tovar qiymatidan foyda miqdoriga kam bo'ladi. Muomala xarajatlari tushunchasi tovarlarni sotish jarayoni bilan bog'liq bo'lib, shu tovarlarni ishlab chiqaruvchidan olib, iste'molchiga yetkazilguncha ketadigan sarflarga aytiladi.


Ular ikki guruxga bo'linadi:

-qo'shimcha muomala xarajatlari

-sof muomala xarajatlari.

Tovarlarni o'rash, qadoqlash, saralash, transportga ortish, tashish va saqlash xarajatlari qo'shimcha muomala xarajatlari hisoblanadi. Muomala xarajatlarining bu turlari ishlab chiqarish xarajatlarining davomi hisoblanib, tovar qiymatiga kiradi va uning qiymatini oshiradi. Xarajatlar tovarlar sotilgandan keyin olingan pul tushumi summasidan qoplanadi.

1-chizma. Xarajatlarning namoyon bo'lish sohasiga ko'ra turkumlanishi.



Sof muomala xarajatlari sotuvchi maoshi, marketing (iste'molchilar talabini o'rganish), reklama va shu kabi xarajatlardan iborat bo'ladi. Sof muomala xarajatlari tovar qiymatini oshirmaydi va ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan tovarni sotgandan keyin olingan foyda hisobidan qoplanadi.

Ishlab chiqarish xarajatlarining ikkinchi yo'nalishdagi konsepsiyalari marjinalistlar va neoklassiklar tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, ular bu boradagi klassik nazariyalarni ham ma'lum darajada hisobga oladilar. Biroq, bu konsepsiyalarning o'ziga xos tomoni shundaki, ular ishlab chiqarish xarajatlarini tushuntirishda resurslarning cheklanganligi va ulardan muqobil foydalanish imkoniyatlaridan kelib chiqadilar.

Ma'lumki, muayyan bir resursni ishlab chiqarishning biron-bir yo'nalishi bo'yicha sarflanishi endilikda bu resursdan boshqa yo'nalishlarda foydalanish imkoniyatini cheklab qo'yadi. Shunga ko'ra, tadbirkor (yoki resurs egasi) mazkur resursni eng yuqori darajada naf keltiruvchi yo'nalishga sarflashga harakat qiladi.

Iqtisodiy resurslarni eng yuqori naf olish maqsadida boshqa muqobil yo'nalishlarda ishlatilishiga yo'l qo'ymay o'ziga jalb etish uchun to'lov iqtisodiy yoki zimmasiga tushuvchi xarajat deb ataladi.

Iqtisodiy xarajatlar mikrodarajadagi iqtisodiy ko'rsatkichlardan biri bo'lib, korxonalar (firma) miqyosida muayyan turdagi maqsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatishning samaradorlik darajasini ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Marjinalistik sarf-xarajatlar nazariyasi bo'yicha korxonalar ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan resurslar o'z resurslari yoki jalb qilingan resurslar bo'lishi mumkin. Shunga ko'ra xarajatlar:

-ichki

-tashqi

xarajatlarga bo'linadi (2-chizma).


Tashqi xarajatlar korxonalar tomonidan uchun zarur resurs va xizmatlarni tashharidan to'lov asosida jalb etishi natijasida vujudga keladigan xarajatlardir. Bunday xarajatlarga yollanma ishchilar ish haqi, xom-ashyo va materiallar uchun to'lovlar, kredit uchun foiz to'lovlari, ijaraga olingan yer uchun renta, transport xizmati va boshqa har xil xizmatlar uchun to'lovlar kiradi. Tashqi xarajatlar to'lov hujjatlari bilan rasmiylashtiriladi, shu sababli buxgalteriya xarajatlari deb ham ataladi.

Korxonaning o'ziga tegishli bo'lgan resurslardan foydalanishi bilan bog'liq xarajatlar ichki xarajatlar deyiladi.

Bunday xarajatlar pul to'lovlari shaklida chiqmaydi. Shu sababli ichki

xarajatlarning darajasini baholash o'z resurslari qiymatini shunga o'xshash resurslarning bozordagi narxlariga taqqoslash orqali amalga oshiriladi.

2- chizma. Xarajatlarning jalb etilish manbaiga ko'ra turkumlanishi.



Shu bilan birga tadbirkorlik faoliyatini ishlab turish uchun zarur bo'lgan to'lov - normal (me'yordagi) foyda ham renta va ish haqi bilan birga xarajatlarning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Normal foyda iqtisodiy foydadan farq qiladi. Normal foyda - bu iqtisodiy resurs sifatidagi tadbirkorlik qobiliyatini raqbatlantirib turish uchun to'lanadigan haq hisoblanadi. Agar biron-bir faoliyat turi normal foyda keltirmasa, tadbirkor bu faoliyat turi bilan shug'ullanishdan to'xtaydi va o'zining kuch-quvvatini boshqa faoliyatga sarflaydi. Sarf-xarajatlarni ichki va tashqi xarajatlarga ajratish, korxonada iqtisodiy faoliyati samaradorligini oshirish yo'llarini qiyosiy tahlil qilish imkoniyatini beradi.

Xarajatlarni doimiy ravishda pasaytirib borish korxonada foydasini oshirishning asosiy vositasi bo`lib xizmat qiladi. Zero mahsulot bahosi tarkibining asosiy elementlari bu xarajat va foydadir. Binobarin, xarajatlarning qanchalik qisqarib borsa shunga mos foyda miqdori oshib boradi.

Ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirishning asosiy yo`nalishlaridan biri bu fan-texnika taraqqiyotining (FTT) yutuqlaridan oqilona foydalanishga erishishdir. FTT yutuqlaridan foydalanish mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan, xom ashyo materiallaridan yoqilg`i resurslaridan yanada to`laroq foydalanishga imkon beradi. Shuningdek, yangi unumdorligi yuqori bo`lgan, samarador mashina, dastgoh va yangi texnologik jarayonlar yaratilishi, uni ishlab chiqarishga joriy etish pirovard natijada korxonada ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga sharoit yaratadi. Fan-texnika taraqqiyotining XX asr ikkinchi yarmidagi o`ziga xos jihati prensipial yangi texnologik ishlab chiqarish usuliga o`tishi bilan xarakterlanadi. Uning mavjud texnologik ishlab chiqarish usullaridan ustunligi faqat nisbatan yuqori iqtisodiy samaradorligida emas, balki sifat nuqtai nazaridan yangi moddiy nematlar va xizmatlarni ishlab chiqarish imkoniyatlaridadir. Xarajatlarni pasaytirishning asosiy yo`nalishlaridan biri bu ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishning takomillashtirishidir. Ushbu yo`nalish ishlab chiqarishda yo`qotishlarni kamaytirish yo`li bilan xarajatlarni pasaytirish bu esa o`z navbatida jonli mehnatni iqtisod qilishga ya`ni ishlab chiqarish unumdorligini oshirishga olib keladi.

3. Doimiy va o'zgaruvchan xarajat turlari

Mutaxassislar xarajatlarga turli nuqtai nazardan turlicha qaraydilar. Buxgalterlar firmalarni faoliyatiga aktiv va passiv nuqtai nazardan baxo berib firmaning faoliyatni baxolaydi. Iqtisodchi va raxbarlar esa firmalarning kelajagi bilan qiziqqan holda xarajatlarga ishlab chiqarishni samaradorligini uzluksiz olib borish nuqtai nazaridan qaraydi xarajatlar turlicha bo'ladi. Xaqiqiy xarajatlar, maxsulot ishlab chiqarish qilingan barcha xarajatlar kiradi. Masalan: ish xaqi, amortizatsiya xarajatlari va boshqalar.

Har bir korxonada, firma, tadbirkorshaxs o'z ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etishda bir qancha masalalarni hal qilishga to'g'ri keladi. Jumladan, qancha xom-ashyo sotib olish kerak, qancha ishchi yollash lozim, qancha ishlab chiqarish vositalari lozim va h.z. Mana shunga o'xshash masalalarni 3 guruxga taqsim etish mumkin.

1. Mavjud ishlab chiqarish quvvatlari asosida qanday qilib ishlab chiqarishni tashkil etish mumkin?
2. Fan-texnika taraqqiyotining erishilgan yutuqlariga ko'ra qanday yangi quvvatlarni jalb etish mumkin?
3. Texnika taraqqiyotiga burilish bo'ladigan yangiliklarga qanday tartibda moslashish mumkin?

Endi qisqa muddatli davrdagi firma faoliyati xarakteri to'g'risida fikr yuritamiz. Eng avvalo xarajatlar to'g'risida quyidagi tushunchalarni bilishimiz kerak:

1. **Umumiy xarajatlar (TC)** – bu firmaning ma'lum turdagi mahsulotini ishlab chiqarish uchun qilingan jami xarajatlardan iborat. Umumiy xarajatlar ikki qismdan iborat:

-umumiy doimiy xarajat (TFC)

-umumiy o'zgaruvchan xarajatlar (TUC)

Ishlab chiqarish xajmining o'zgarishiga (qisqarish yoki ortishi) bog'liq bo'lmagan tovarlarning xajmiga ta'sir etmaydigan xarajatlar **doimiy xarajatlar** deyiladi.

Doimiy xarajatlar ishlab chiqarish xajmiga bog'liq bo'lmaydi, uning o'sishiga xam bevosita ta'sir etmaydi va ishlab chiqarishning xar qanday, xatto nolinchida xam mavjud bo'ladi. Bunga korxonaning to'lov majburiyatlari (zayomlar bo'yicha foiz va boshqa), soliqlar, amortizatsiya ajratmalari, ijara xaqi, qo'riqlash xizmatiga to'lov, uskunalarga xizmat ko'rsatish sarflari, boshqaruv xodimlari maoshi va shu kabilar kiradi.

Doimiy xarajat- Bular shunday xarajatlarki, ularning miqdori ishlab chiqarishning oz yoki ko'p bo'lishiga qarab o'zgarmaydi, balki qanday bo'lsa, shundayligicha qolaveradi. Masalan: tikuvchilik firmasi binoni 1mln so'mga


ijaraga oldi. Bankdan 5mln so'm qarz ko'tarib yiliga 1,0mln so'm foiz to'laydi, hisobchini ishga olib oyiga 75 ming so'm, yiliga esa 900 ming so'm ish xaqi to'laydi. Bu xarajatlar jami 2,9mln so'mni ($1.0+1.0+0.9=2.9$) tashkil etadi. Firma 100 ta yoki 500 ta ko'ylak tikmasin, baribir shu 2.9 mln so'm xarajatni qilishi shart. Doimiy xarajatlarga odatda amortizatsiya ajratmasi, doimiy ishga olinganlarning maoshi, ijara xaqi, korxonada mulkini sug'urtalash puli, bankga beriladigan foiz kabilar kiradi.

O'zgaruvchi xarajatlar- ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga ta'sir qiladigan xarajatlarga aytiladi.

O'zgaruvchi xarajatlar-ishlab chiqariladigan tovar miqdorini oshishiga yoki kamayishiga ta'sir qiladi va ishlab chiqarish xajmi o'zgarishiga bog'liklikda o'zgaradi. Unga xom ashyo, material, yonilg'i-transport xizmati, ishchilar ish xaqi va shu kabilarga qilinadigan sarflar kiradi.

Ishlab chiqarishning xar bir darajasida doimiy va o'zgaruvchan xarajatlar yigindisi **umumiy yoki yalpi xarajatlar** ni tashkil qiladi.

Doimiy (FC), o'zgaruvchi (VC) va yalpi (TC) xarajatlarning grafikdagi ifodasini 4-chizma orqali ko'rishimiz mumkin.



3-chizma. Doimiy, o'zgaruvchi va umumiy (yalpi) xarajatlarning grafikdagi tasviri.

Umumiy doimiy xarajatlar mahsulot hajmini ko'payishi yoki kamayishiga qarab o'zgarmaydi.

Maxsulot birligini ishlab chiqarishga qilinadigan sarf xarajatlarni xisoblash uchun O'rtacha umumiy, O'rtacha doimiy va O'rtacha o'zgaruvchan xarajatlar tushunchalaridan foydalanadi.

1.O'rtacha xarajat (AC) –firmaning mahsulot birligiga to'g'ri kelgan xarajatlardan iborat. O'rtacha xarajatni ham o'rtacha doimiy xarajatga (AFC) va o'rtacha o'zgaruvchan xarajatga (AVC) bo'lish mumkin. O'rtacha doimiy xarajat mahsulot miqdorini ko'payishi bilan doimo kamayadi va aksincha

mahsulot miqdorini, miqdorini kamayishi bilan u ko'payadi. O'rtacha o'zgaruvchan xarajat (AVC) bo'lsa mahsulot miqdorini o'zgarishi bilan ko'payadi yoki kamayadi. O'rtacha doimiy xarajatlarning doimiy xarajatlarning ishlab chiqarilgan mahsulot miqdoriga nisbati bilan aniqlanadi:

$$AFC = \frac{TFC}{Q}$$


Bu yerda: AFC-o'rtacha doimiy xarajat;

TFC-doimiy xarajatlarning summasi.

2. Qo'shimcha xarajatlarning (MC) – xar bir qo'shimcha ishlab chiqarilgan mahsulot birligi uchun sarflangan xarajat hisobiga umumiy xarajatlarni o'sgan qismi. Doimiy xarajat har doim o'zgarimas bo'lganligi uchun qo'shimcha doimiy xarajat xar doim "0" ga teng (MFSq0). SHuning uchun ham qo'shimcha xarajat – xar doim qo'shimcha o'zgaruvchan xarajatlardan iborat bo'ladi.

Yuqoridagi aytilgan fikrlarni aniqroq tushunish uchun quyidagi jadvalga murojaat etamiz.

Doimiy (FC), o'zgaruvchi (VC) va yalpi (TC) xarajatlarning grafikdagi ifodasini 4-chizma orqali ko'rishimiz mumkin.




4-chizma. Doimiy, o'zgaruvchi va umumiy (yalpi) xarajatlarning grafikdagi tasviri

Maxsulot birligini ishlab chiqarishga qilinadigan sarf-xarajatlarni xisoblash uchun o'rtacha umumiy, o'rtacha doimiy va o'rtacha o'zgaruvchi xarajatlarning tushunchalaridan foydalaniladi. O'rtacha umumiy xarajatlarning yalpi (umumiy) xarajatlarning ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori nisbatiga teng:

bu yerda:

AC - o'rtacha umumiy xarajatlar;
TC - yalpi (umumiy) xarajatlar;
Q - ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori.
FC-doimiy xarajat



5-chizma umumiy xarajatning tuzilishiga qarab turkumlanishi

4.Xarajatlarning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar.

Xarajatlarning o'zgarishi-xarajatlarning qaysi yo'nalishda o'zgarishini bilish firmaga qancha ishlab chiqarganda qanday foyda ko'rish mumkinligini aniqlashga yordam beradi.

Xarajatlar o'zgarib turadi, bu esa resurslarning bozor narxiga, ularning tejalishiga, xarajatlar turlarining nisbatiga va ishlab chiqarish ko'lamiga bog'liqdir. Xarajatlarga ta'sir etuvchi omillar ikki guruxga bo'linadi:

Birinchi, firmaga bog'liq omillar, bu ishlab chiqarish ko'lamini o'zgartirish, resurslarni tejab ishlatish.

Ikkinchi, firmaga bog'liq bo'lmagan omillar, bularga resurslar narxi va soliqlar kiradi.

Bir yorqin misol tariqasida firmaning ishlab chiqarish xarajatlariga ta'sir etuvchi omillarni ko'rib chiqamiz.

Ishlab chiqarish xarajatlariga ta'sir etuvchi omillar

Ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish chuqur tanglikni chetlab o'tishga intilishga, fan va texnikaning ilg'or texnologiyaning eng yangi yutuqlarini izlash va joriy etishga undaydi.

Bularning barchasi pirovard natijada keskin raqobatchilik ssaroitida ishlab chiqarishning barqarorligiga erishishga inqirozning oldini olishga yo'naltirilgan. Bu xolat kengroq qurilganda, bozorda talab bilan taklif o'rtasida qulay muvozanatning ta'minlanishiga olib keladi. Bizga kapitalistik ishlab chiqarish usulining eng katta nuqsoni illati sifatida targ'ib qilib iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirishning qudratli omiliga aylanmoqda.

Bugungi kunda ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirib borish va unga ta'sir etuvchi omillarni taxlil qilib berish juda muxim hisoblanmoqda. Chunki ishlab chiqarishning rivojlanib borishi va yuksalishi xarajatlarni qisqartirib borish, unga ta'sir etuvchi omillari taxlil qilish, aniqlash kabi xususiyatlarga ega xisoblanadi. Bu soxada dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlari o'zlarining taraqqiyot darajasiga erishgandir. Ma'lumki, sobiq totalitar tuzim davrida barcha ishlab chiqarish markazlashgan, rejalashtirilgan tartibda edi. Shuning uchun xam isrofgarchilik juda ko'p miqdorda edi. Ishlab chiqarish xarajatlarining ortib ketishi maxsulot sifatining buzilishiga, shuningdek uning "o'tmay" qolishiga sabab bo'ldi. Natijada o'sha davrda mamlakat ishlab chiqarishi inqirozga uchradi. Bu mamlakat uchun fojiali xol edi. Chunki egasiz

mulkning qadri bo'lmaydi, tekin narsani esa samarasi bo'lmaydi. Bu barchamizga ma'lumdir.

Shuning uchun xam mustaqillikka erishganimizdan keyin, prezidentimizning oqilona fikrlari, ularning tashabbuslari bilan eng asosiy e'tibor shu soxaga qaratiladi.

Ishlab-chiqarish xarajatlariga quyidagicha omillar ta'sir ko'rsatadi:

- 1. Mehnat unumdorligini oshib borishi.**
- 2. Mehnatni ilmiy tashkil qilish.**
- 3. Ishchi kuchlarini to'g'ri joylashtirish va ishlab chiqarishga to'g'ri jalb etish.**
- 4. Fan-texnika taraqqiyotini yuksaltirib borish, tadbqiq qilish.**
- 5. Kadrlar malakasini oshirib borish.**
- 6. Xom-ashyo resurslaridan samarali va unumli foydalanish.**
- 7. Ishlab chiqarishni boshqarishni to'g'ri tashkil etish.**

Umuman olganda esa bu omillarni quyidagicha birlashtirish mumkin: yangi fan-texnikani qo'llash mexnat unumdorligini oshirib borish, xom ashyo sarflarini qisqartirib borish. Xar qanday jamiyatning muxim bo'g'inlaridan asosiysi ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirib borishdir. Xar bir faoliyat ko'rsatayotgan korxonona xam o'z oldiga ana shuni vazifa qilib qo'yadi, ya'ni korxonaning asosiy maqsadi, ishlab chiqarish xarajatlarini minimallashtirib maksimal foyda olishdir, ko'proq maxsulot ishlab chiqarishga qaratilgan.

Ishlab chiqarish xarajatlariga yuqorida sanab o'tilgan muxim omillar ta'sir etar ekan, bularning barchasini birgalikda amalga oshirish juda qiyin. Masalan: xom ashyo zaxiralarining eng arzon kanallarini qidirib topish va samarali ishlatishni ta'minlash, ishchilarni ijtimoiy muxofazalashni kuchaytirish, fan-texnika taraqqiyotini yuksaltirib, uni ishlab chiqarishga tadbqiq qilish, umuman bularni birbaraviga amalga oshirish murakkab jarayondir. Lekin, shu omillarni barchasini birgalikda olib borilishi iqtisodiy samaradorlikka erishishning asosiy sharti xisoblanadi.

Respublikamizda bunday ishlarni rivojlantirish maqsadida ilgari davlat markazlashgan korxonalar tizimi o'zgartirilib, xususiylashtirish ishlari yo'lga quyiladi. Bugungi kunda umumiy ishlab chiqarishning 84% asosan xususiy va qo'shma korxonalariga to'g'ri kelmoqda. Bu degan so'z xar bir korxonona o'zining ishlab chiqarish jarayonlariga va xarajatlarni kamaytirib borish omillariga jiddiy ta'sir qilmoqda deganidir.

Albatta bunday munosabatlar ishlab chiqarishni pasayishini oldini olish ishsizlikka yo'l qo'ymaslikni ta'minlaydi. Ishlab chiqarish va tadbirkorlikni


rivojlantirib borish esa unga tamal toshi bo'lib xizmat qiladi.

Shunday qilib, ishlab chiqarish xarajatlariga asosan fan-texnika yutuqlari, yuqori ishchi kuchi, xom-ashyo resurslari asosiy ta'sir ko'rsatadi. Mexnatni ilmiy tashkil qilgan xolda ishlab chiqarishni yuksaltirib borish xam muximdir. Xar bir ishchi o'zining kasbini qilayotgan ishini sevishi kerak. Bu esa kadrlar malakasizligiga barxam beradi, natijada ishlab chiqarish yuksaladi. Ilmiy tadqiqotlardan ma'lumki, ishchilarning u ishdan bu ishga ko'chib yurishlari natijasida ish samaradorligi 30-40% foizgacha kamayar ekan. Bu degan so'z ishlab chiqarishning asosiy qismi yo'qoldi degandir. Shu sababli eng asosiy e'tibor ishchi o'rinlarini to'g'ri tashkil etishga qaratilishi zarur.

Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan ko'plab korxonalar ishlab chiqarish xarajatlariga ta'sir qiluvchi omillarini xar tomonlama o'rganib, shu asosda ish yuritmoqdalar.

Yangi bozor tizimi isloxlarni amal qilishi iqtisodiyotda juda muxim sanalmoqda va axamiyati ortib bormoqda. Xar bir korxonaga o'z oldiga xarajatlarni pasaytirish, unga ta'sir etuvchi omillarni taxlil qilishni ustivor vazifa qilib qo'yish kerak, ana shundagina iqtisodiyot yuksaladi, ishlab chiqarish taraqqiy etadi.

6-chizma Ishlab chiqarish xarajatlariga ta'sir etuvchi omillar



Ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishning asosiy yo'nalishlari va iqtisodiy samaradorlik

Mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarining uzluksiz pasayishi bozor iqtisodiyotida ishlab chiqarish usulining qonuniyatidir. U mehnat unumdorligining to'xtovsiz o'sishi, mehnatkashlar madaniy, texnikaviy darajasini yuksalishi, moddiy va mehnat resurslaridan ratsional foydalanish, xo'jalik yuritish usullarining takomillashtirishi bilan ta'minlanadi.

Ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish uchun nurashning ahamiyati yildan yilga oshib bormoqda, chunki uni pasaytirishning har bir foizning absolyut xajmi o'sib bormoqda. Umuman Respublika bo'yicha sanoat mahsuloti tannarxini faqat 1% ga pasaytirilsa 3 mlrd. so'm miqdorida iqtisod qilinadi.

Ishlab chiqarish xarajatlarining pasaytirishning yo'llarini keltiramiz. Ishlab chiqarish xarajatlarining pasaytirishda ishlab chiqarishning texnikaviy darajasini oshirish katta ta'sir ko'rsatadi. Yangi texnikani joriy qilish va mahsulot tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish jarayonlarining kamayishiga kompleks ta'sir ko'rsatadi. Ular moddiy resurslardan yanada samaraliroq foydalanish, buyumlarni tayyorlashga ketadigan mehnat sarfini kamaytirish imkonini beradi.

Amaldagi jihozlarni zamonaviylashtirish hamda qo'llanilayotgan texnikadan foydalanishni xisobga olgan holda ishlab chiqarish xarajatlarini anchagina kamaytirishga erishish mumkin. Yangi texnika va progressiv texnologiya asosida o'tgan va jonli mehnatni tejashga erishiladi. Moddiy resurslarda buyumlashgan o'tgan mehnatni tejash xuddi shu miqdordagi xom-ashyo va materiallardan ko'proq mahsulot ishlab chiqarish imkonini beradi; jonli mehnat sarfini tejash mahsulot unumdorligini oshirish imkonini beradi, ya'ni har bir ishchiga hisoblanaganda ko'proq mahsulot ishlab chiqarishga imkon yaratadi. Bunga fan-texnika taraqqiyoti yordam beradi. Yangi texnika va ilg'or texnologiya ishlab chiqarishni boshqarishni takomillashtirish asosida mehnat unumdorligi oshib boradi bu esa ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga olib keladi.

Moddiy va pul mablag'larini sarflashda qat'iy iqtisodiy tejashga rioya qilish katta ahamiyatga ega. Asbob uskunalarni asrashga dori sarflarini kamaytirish, material shuningdek ishlab chiqarish chiqindilaridan maksimal foydalanish. Brak natijasida ro'y beradigan nobudgarchiliklarni kamaytirish fondlarining samaradorlik darajasini oshirish, ish xaqifondini ratsional sarflash tsexi va umumzavod xarajatlarini kamaytirish bularning barchasi u yoki bu

darajasida maxsulotning arzonlashuviga ta'sir ko'rsatadi.

Moddiy texnika ta'minotini yaxshilash ishlab chiqarish xarajatlarini kamayishiga olib keladi. Korxonaning xom-ashyo material, yoqilgi va energiya yetkazib berishning uzilib qolishi ishlab chiqarish ritmini buzishga bekor turib qolishlariga oy oxirida xaybarakallachilikka va oqibat natijada unumsiz xarajatlarga olib keladi. Korxonada iqtisodiyotga xaddan tashqari normativdan ortiqcha zapaslarni bo'lishi xam salbiy ta'sir ko'rsatadi. Zapas ko'payib ketganda oborot mablag'lari oshib ketadi, moliyaviy axvol yomonlashadi, ishlab chiqarishning rentabelligi pasayib ketadi.

Ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga mexnatni tashkil etishda takomillashtirish ta'sir ko'rsatadi. Xar qanday texnikadan xatto yangisidan xam ishlab chiqarishni to'g'ri tashkil qilmay turib, maksimal ravishda foydalanish mumkin emas. Shuning uchun texnologik protsesslarni mexanizatsiya va avtomatlashtirish bilan bir qatorda, mexnatni ilmiy asosda tashkil etishga katta e'tibor berish kerak.

Maxsulot tannarxini pasaytirishda xisobotning roli kattadir. Xisob olib borish yoqilgi va energiyadan, xom ashyo va materiallardan ratsional foydalanishga yordam beradi, xarajatlarni kamaytirish va korxonada jamg'armasini oshirish imkonini beradi. Kollektivning kuchini yetishtirilladigan maxsulotning tannarxini pasaytirishga qaratish uchun ishlab chiqarishga qilinadigan xarajatlarni to'g'ri rejalashtirish va xisobga olish zarur. Iqtisod qilish yo'llarni aniqlash ortiqcha xarajatlarning sababini ochib tashlash uchun bu xarajatlarni doimi analiz qilib turish kerak. Ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish rejasining bajarilishini analiz qilish ishlab chiqarish rentabelligining oshishi uchun korxonadagi barcha ishlarning takomillashtirish uchun muxim ahamiyatga ega. Lekin analiz faqatgina tannarxning pasaytirish rejasini bajarilishiga qo'yilgan baxo bilan chegaralanmaydi, u ishlab chiqarish xarajatlarini yanada kamaytirish uchun taxlikiy va texnikaviy xarakatlarni xam ko'rishi kerak.

Maxsulot ishlab chiqarishni analiz qilishning ishchilarning aktiv ishtirok etishlari uni pasaytirishning muxim yo'lidir.

Xarajatlar korxonaga bog'lik bo'lmagan omillarga qarab o'zgaradi. Masalan: resurs narxi xar xil xizmat xaqqining tebranishi korxonada xoxishidan qat'iy nazar xarajatlarni o'zgartiradi. Korxonada ishlab chiqarish ko'lami kengaysa, resurslar sarfi qisqaradi, chunki ular kamroq isrof etiladi. Resurslarni tejovchi texnologiya joriy etilganda xarajatlar keskin qisqaradi. O'rtacha xarajatlar mexnat unumligiga nisbatan teskari mutanosiblikda o'zgaradi. Mexnatni unumining ortishi xam moddiy xam mexnat sarfini qisqartiradi bozordagi narx binobarin tovar barqaror sharoit mexnat unumdorligi xarajatlari

pasaytirish orqali foydani ko'paytiradi.

Xarajatlarni doimiy ravishda pasaytirib borish korxonada foydasini oshirishning asosiy vositasi bo'lib xizmat qiladi. Zero maxsulot baxosi tarkibining asosiy elementlari bu xarajat va foydadir. Binobarin xarajatlar qanchalik qisqarib borsa, shunga mos foyda oshib boradi.

Ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish asosiy yo'nalishlaridan biri bu fan texnika taraqqiyotining (FTT) yutuqlaridan oqilona foydalanishga erishishdir. FTT yutuqlaridan foydalanish mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan, xom-ashyo materiallaridan yoqilgi resurslaridan yanada tularoq foydalanishga imkon beradi. Shuningdek yangi unumdorligi yuqori bo'lgan samarador mashina, dastgoxda yangi texnologik jarayonlar yaratish, uni ishlab chiqarish joriy etish pirovard natijada korxonada ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga sharoit yaratadi. FTT ning 20 –asr ikkinchi yarmidagi o'ziga xos jixati printsipal yangi texnologik usulga o'tilishi bilan xarakterlanadi. Uning mavjud texnologik ishlab chiqarish usullaridan ustunligi faqat nisbatan yuqori iqtisodiy samaradorligida emas, balki sifat nuqtai nazaridan moddiy ne'matlar va xizmatlarni ishlab chiqarish imkoniyatidir. Xarajatlarni pasaytirish asosiy yo'nalishlardan biri bu ishlab chiqarish va mexnat tashkil etishning takomillashtirishdir. Ushbu yo'nalish ishlab chiqarishda yo'qotishlarni kamaytirish yo'li bilan xarajatlarni pasaytirish bu esa o'z navbatida jonli mexnatni iqtisod qilishga ya'ni ishlab chiqarish unumdorligini oshishiga olib keladi.

Samaradorlik iqtisodiy kategoriya sifatida odamlarni ayrim ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan maxsulotlar qobiliyatlarini anglatadi. Samaradorlik miqdoriy o'lchov darajasiga ega bo'ladi. Iqtisodiyotda eng avvalo yuqori samaradorlik ko'pincha imkoniyatlari bilan birgalikda ist'emol qilishdan xosil bo'lgan samaradorlikning yuksalishini izoxlaydi. Barcha samaradorliklar majmuasi eng yuqori maksimal samaradorliklardan iborat ekanini izoxlash qiyin emas. Xar bir ist'emol qilinayotgan yangi tovar o'zining eng yuqori samaradorlik darajasiga teng samaradorlik darajasini kengaytiradi.

Maksimal samaradorlikni pasaytiruvchi qonunga ko'ra navbatdagi xar bir ist'emol qilinayotgan ne'matni yuqori samaradorlik darajasi oldingi bosqichga nisbatan past bo'ladi.

Demak, bir o'lchovga to'g'ri keluvchi qo'shimcha ne'matlar xosil qilish samarasi oldingi bosqichda olingan natijalardan pastroq bo'ladi.

Iqtisodiy samaradorlik bir necha iqtisodiy ko'rsatgichlar orqali tavsiflanadi. Ishlab chiqarish samaradorligi bir qancha juziy ko'rsatgichlar orqali tavsiflanadi. Samaradorlikning umumiy ko'rsatgichi mexnat unumdorligidir. U umummaxsulot miqdori (MM) ning jonli mexnat (JM) sarfiga nisbatan ifodalanadi. Jonli mexnat sarfi kunlarda soatlarda xisoblanadi.

Mexnat unumdorligi bilan birga mexnat sig'imi degan samaradorlik ko'rsatgichi xam qo'llanadi. Mexnat sig'imi jonli mexnatni maxsulot miqdoriga nisbatan orqali aniqlanadi. Maxsulotning material degan iqtisodiy ko'rsatgich xam bizning davrimizda katta ahamiyat kasb etmoqda.

Material sig'imi moddiy ashyolar sarfini (BM) maxsulot miqdori (MM) ga nisbatan orqali aniqlanadi. Ishlab chiqarish fondlarini samaradorligi maxsulotning fond sig'imi yoki fondlar qaytimi ko'rsatgichlari orqali o'lchanadi. Ko'rinib turibdiki juziy ko'rsatgichlar samaradorlik umumiy ifodasini aniqlashtirilgan shaklida bu nisbatlarda maxsulotlar miqdori ko'rsatgichlari o'rnida jami maxsulot yalpi milliy maxsulot, jami ichki maxsulot, sof maxsulot, qo'shimcha maxsulot, uning pul shakllaridan biri foyda milliy daromad kabi kategoriyalar qo'llaniladi.

Bozor Iqtisodiyotiga o'tish davrida ayniqsa, respublikamizning xozirgi ssharoitida samaradorlikni oshirish juda jiddiy masaladir. Gap shundaki, xozirgi davrda ko'pgina resurslar chegaralangan ularning aksariyat qismi xorijdan keltiriladi, zamonaviy texnologiya yetishmaydi, kadrlar malakasi yuqori emas. shuning uchun resurslardan tejamli foydalanish, mexnat unumdorligini oshirish milliy va xorijiy sarmoyalarni eng zarur soxalarga joylashtirish yuqori malakali kadrlar tayyorlash kabi samaradorlikni oshirish vositalariga yetarlicha e'tibor berish talab qilinadi.

Andijon biokimyo zavodi - yirik kimyo sanoati korxonasi. Andijon shahrida joylashgan. "O'z kimyosanoat" uyushmasi tarkibiga kiradi. Dondan rektifikatsiyalangan oziq-ovqat (etil) spirti ishlab chiqaradi. Respublikadagi oziq-ovqat, tibbiyot, atir-upa va boshqalar. Sanoat tarmoqlarini spirt bilan ta'minlaydi. Korxonada 1953 yilda Andijon gidroliz zavodi sifatida tashkil etilgan va chigit shulxasi, sholi qobig'idan texnik etil spirti, ozuqa achitqilari, ksilit, nitrolignin va boshqalar. Mahsulotlar ishlab chiqardi. 90-y.lar boshidan atrof muhitga salbiy ta'sirini hisobga olib zavodning ishlab chiqarish yo'nalishini o'zgartirish ishlari boshlandi va 1994 yildan gidroliz sanoati ishlab-chiqarish quvvatlari to'xtatildi. 1991-1994 yillarda etil spirti ishlab chiqarish quvvatlari qurilib, korxonaning 1-navbati 1994 yilda dekabrda ishga tushirildi (loyiha quvvati yiliga 915 ming dal etil spirti). 1995 y. sentabrdan korxonaning (yillik loyiha quvvati 877 ming dal bo'lgan) 2-navbati qurilishi boshlandi va 1999 yilda ishga tushirildi.

1-jadval. Andijon biokimyo zavodi ochiq aksiyadorlik jamiyatining 2011 yil moliya-xo'jalik faoliyatining yakuni bo'yicha buxgalteriya balansi


«Андижон биокимё заводи» очик акциядорлик
жамиятининг 2011 йил молия-хўжалик фаолиятининг
якуни бўйича бухгалтерия баланси

Баланс 2012 йил 1 январь ҳолатига	
Актив	минг сўм
Асосий восита	24 736 583
Емирилиш	7 921 259
Капитал қўйилмалар	1 955 718
Узоқ муддатли инвестициялар	65 000
Жорий активлар	4 100 550
в.т.ч.Дебиторлар	304 007
Баланс	22 992 418
Пассив	
Устав капитали	8 537 988
Қўшилган капитал	88 132
Захира капитали	3 402 125
Тақсимланмаган фойда	3 302 238
Узоқ муддатли мажбуриятлар	6 384 435
Кредиторлар	1 277 500
Баланс	22 992 418

2-jadval. Moliyaviy natijalari bo'yicha 2012 yil yanvar holatiga ma'lumot

Молиявий натижалар бўйича 2012 йил 1 январь ҳолатига маълумот	
Маҳсулотларни сотишдан соф тушум	33 152 211
Қўшилган қиймати солиғи	7 279 386
Акциз солиғи	3 416 958
Сотилган маҳсулот таннари	24 001 711
Давр харажатлари	5 326 590
Дивидендлар шаклидаги даромадлар	0
Бошқа даромадлар	196 599
Молиявий фаолият харажатлари	245 289
Даромад солиғини тўлагунга қадар фойда	3 951 290
Даромад (фойда) солиғи	397 587
Фойдадан бошқа солиқлар ва йиғимлар	251 465
Ҳисобот даврининг соф фойдаси	3 302 238

„Nargiz“ ishlab chiqarish firmasi



**3-jadval. „Nargiz” ishlab chiqarish firmasining moliyaviy hisoboti
ko’rsatkichlari natijalari**

T/r	Ko’rsatkichlar	O’lchov birligi	Korxonada ma’lumotlari bo’yicha	Auditor ma’lumotlari bo’yicha	Farqi (+;-)
1	Korxonaning foydasi	ming so’m	2800.0	2800.0	-
2	Soliqqa tortilmaydigan foyda	ming so’m	500.0	200.0	+300.0
3	Soliqqa tortiladigan foyda	ming so’m	2300.0	2600.0	-300.0
4	Foyda solig’I stavkasi	ming so’m	24	24	-
5	Soliq summasi	ming so’m	552.0	624.0	+72.0
6	Bo’nak shaklida to’langan soliq	ming so’m	500.0	500.0	-
7	To’lanishi kerak bo’lgan foyda solig’i	ming so’m	52.0	124.0	+72.0
8	To’langan dividendlar	ming so’m	30.0	30.0	-
9	Yilning sof foydasi	ming so’m	2318.0	2146.0	-172.0

4-jadval. „Nargiz” ishlab chiqarish firmasining yillik moliyaviy hisoboti ko'rsatkichlari.

T/r	Ko'rsatkichlar	Satr	Buxgalteriya hisobning analitik regstrlaridagi ma'lumotlar	„Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot ma'lumotlari”	Farqi(+;-)
1	Asosiy faoliyatning yalpi moliyaviy natijasi	070	3793.8	3793.8	-
2	Davr xarajatlari: -sotish xarajatlari -ma'muriy xarajatlar	080 090	2000.0 900.0	2060.0 940.0	+60.0 +40.0
3	Boshqa faoliyatning moliyaviy natijalari: -zararlar -foyda	100 110	43.6	43.6	
4	Soliqqacha bo'lgan moliyaviy natija (foyda)	120	850.2	750.2	-100.0
5	Foyda solig'i	130	292.0	262.0	-30.1
6	Bo'nak shaklida to'langan foyda solig'i	140	190.0	190.0	-
7	To'lanishi kerak bo'lgan foyda solig'i qoldig'i	150	102.0	72.5	+30.1
8	To'langan dividendlar	160	157.6	157.6	-
9	Yilning sof foydasi	170	400.0	330.1	69.9

5-jadval. „Nargiz” ishlab chiqarish firmasining mahsulot birligining ishlab chiqarish xarajatlari tahlili

Xarajat moddalari	Mahsulot birligi uchun sarflanadigon xarajat summasi	Jamiga nisbatan salmog'i	Mahsulot birligi uchun sarflanadigon xarajat so'mda	Jamiga nisbatan salmog'i
1.Hom-ashyo va materiallar xarajati	304	27.6	231.7	22.5
2.Yarim fabrikat xarajatlari	100	9.0	154.5	15.0
3.Yog'ilg'l va energiya xarajatlari	62	5.6	63.9	6.7
4.Ish xaqi xarajatlari	273	24.8	219.4	21.3
5.Ijtiloiy sug'urta xarajatlari	55	5.0	55.6	5.4
6.Brakdan ko'rilgan zarar	25	2.3	30.9	3.0
7.Boshqa ishlab chiqarish xarajatlari	281	25.7	27.4	26.6
Jami ishlab chiqarish xarajatlari	1100	100.0	1030	100.0

Qashqadaryo parrandachilik fermasi

Qashqadaryo viloyatida 2014 yilda parrandachilikni rivojlantirishga bo'yicha qabul qilingan dasturga muvofiq, yil oxiriga qadar parrandalar soni 4 million 294 mingtaga, tuxum ishlab chiqarish 340 million 800 ming donaga, parranda go'shti yetishtirish 1944 tonnaga yetkaziladi. Tarmoqqa ixtisoslashgan 31 ta xo'jalikni yangidan tashkil qilish uchun 5 milliard 52 million so'mlik investisiya o'zlashtiriladi. Loyihalar to'liq amalga oshirilgach, bu xo'jaliklarda boqiladigan parrandalar 188,3 mingtani, yetishtiriladigan tuxum miqdori 21,1 million donani, go'sht 65 tonnani tashkil etadi. O'z navbatida, 124 kishi ish bilan ta'minlanadi.

Parrandalarning qolgan qismi xonadonlarda parvarishlanadi. Shunga ko'ra, dasturga muvofiq, aholiga jo'ja yetkazib berish chora-tadbirlari ishlab chiqiladi. Shaxsiy yordamchi, dexqon va fermer xo'jaliklarida mavjud inkubatorlarni xatlovdan o'tkazish, nosozlarini ta'mirlash, qo'shimcha inkubatorlar sotib olish, tijorat banklari tomonidan kreditlar ajratish, naslli tuxum, inkubator va kataklarni yetkazib beruvchi korxonalarni xonadonlarga biriktirib qo'yish ishlari izchil amalga oshiriladi.

Parrandalarni turli kasalliklardan saqlash, profilaktik tadbirlarni o'tkazish xam doimiy e'tiborda bo'ladi.

Tarmoqning rivojlanishida, tabiiyki, parrandalar nasli muhim o'rni tutadi. Xozir dunyoda tuxum beradigan parrandalarning "Lomann" (Germaniya), "Dekali", "Xayseks" (Gollandiya), "Xay-Layn" (AQSh) va "Rodonit-3" (Rossiya) singari zamonaviy zotlari ma'lum. Ulardan uy sharoitida bir yilda 270 dona, sanoat usulida esa 330 donagacha tuxum olish mumkin. Qolaversa, bugungi kunda voaha bozorlariga chiqarilayotgan tuxumlarning 70 foizi Germaniyadan keltirilgan "Lomann" ulushiga to'g'ri keladi.

Ular jigarrang, oq va och kulrang bo'ladi. Yakkabog' tumanidagi "Kumush kuz fayz" agrofirma shaklidagi MChJda bu tovuqlardan har kuni o'rtacha 50 ming dona tuxum olinayapti.

2011 yili 27 ming 500 ta "Lomann" jo'jalarini keltirdik, - deydi jamoa boshlig'i Abdunabi G'iyosov. - Bundan tashqari, o'sha yili xorijdan 27 ming, keyinchalik 80 ming bosh parrandaga mo'ljallangan dastgohlar olib kelib o'rnatdik. Endilikda tovuqlar 50 mingtaga, jo'jalar 30 mingtaga yetdi. Tovuqlardan kuniga 60-70 ming dona tuxum olish niyatidamiz. Hademay, jo'jalar ham tuxumga kirsa, bu ko'rsatkich keskin ravishda oshadi. Eng muhimi, biz yaqinda tarmoqni yanada kengaytirish maqsadida qo'shimcha ravishda 22 gektar yer oldik. Omixta yem tayyorlaydigan seximiz esa uzluksiz ishlab turibdi. Kelgusida 114 ming AQSh dollari miqdoridagi mablag' evaziga

Eronan yangi dastgoxlar keltirishni mo'ljallayapmiz. Ishonchimiz komilki, parrandachilikka ixtisoslashgan korxonalarining ana shunday rivojlanishi, yangilarining tashkil etilishi tuxum va parhez go'sht mahsulotlari ko'payishiga, bozorlarimiz yanada to'kin bo'lishiga xizmat qiladi.



Xulosa:

Xulosa qilib aytganda bozor munosabatlarini rivojlantirishning asosiy elementi bo'lgan tadbirkorlik tushunchasi ijtimoiy-iqtisodiy xodisa sifatida keng ijtimoiy munosabatlarini o'z ichiga oladi. Tadbirkorlik kishilar (mulkchilik sub'ektlari)ning moddiy va pul mablag'lari (kapitalni) amalda harakatga keltirib, daromad topishga mo'ljallangan iqtisodiy faoliyatdir. Tadbirkorlikda yaratuvchilik faoliyati orqali daromad olinadi. U mavxum narsa emas, balki aniq maqsadga qaratilgan faoliyat bo'lib aniq shaxslar xatti harakatida namoyon bo'ladi. "O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risidagi qonun" ga muvofiq "Tadbirkorlik, mulkchilik sub'ektlarning foyda olish maqsadida tavakkal qilib va mulkiy javobgarlik asosida, amaldagi qonunlar doirasida tashabbus bilan iqtisodiy faoliyat ko'rsatishdir".

O'zbekistonda ishlab chiqarish korxonalarini faoliyati yanada yuksalmoqda. Mamlakatimizda izchil amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, ishlab chiqarish korxonalarining har tomonlama qo'llab-quvvatlanayotgani natijasida ularning faoliyati tobora rivojlanib borayapti. Poytahtimizdagi mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi «Premium Safete» O'zbekiston – Rossiya qo'shma korxonasi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Mahsus ishchi kiyimlari va poyabzallar ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan mazkur korxonada, uch yildirki, bozorda o'z o'rnini topib kelmoqda.

– Biz, asosan, buyurtmalar bo'yicha ish yuritamiz, — deydi korxonada bosh direktori o'rinbosari Shavkat Xonboboev. – Hususan, «O'zbekneftgaz» milliy xolding kompaniyasi, «O'zbekiston temir yo'llari», «O'z kimyosanoat», «O'zbekengilsanoat» davlat aksiyadorlik kompaniyalari singari iqtisodiyotimizning yirik tarmoqlari tarkibidagi korxonalar doimiy xaridorlarimiz hisoblanadi. Joriy yilning to'qqiz oyi ichida ularga qariyb 200 million so'mlik mahsulot yetkazib berdik.

Xalqaro sanoat yarmarkasi va Kooperatsiya birjasida biz rossiyalik sanoatchilar bilan kelishuvga erishdik. Hozirgi kunda korxonada 80 nafarga yaqin ishchi-xodim buyurtmalarni o'z vaqtida bajarish maqsadida astoyidil mehnat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. „ Tadbirkorlik subyektlarini xuquqiy ximoya qilish tuzumini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” O'zbekiston Respublikasining Prezidentining Farmoni. 2005 yil, 14 iyun.
2. I. A. Karimov. Iqtisodiyotni erkinlashtirish, resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish-bosh yo'limiz. Toshkent „ O'zbekiston ”, 2002 yil.
3. „Tadbirkorlik va tadbirkorlik faoliyati kafolatlari to'g'risi” da. O'zbekiston Respublikasining qonuni. 1999 yil 14 fevral.
4. Sh. Sh. Shodmonov, U. V. G'afurov „ Iqtisodiyot nazariyasi” Toshkent „ Moliya “ 2005 yil.
5. Kichik Biznes va Xususiy Tadbirkorlikni tashkil etish, rejalashtirish, boshqarish. Toshkent-„ Fan va Texnologiya” 2005 yil.
6. O'zbekiston Respublikasining „Korxonalar to'g'risida” gi qonuni. Toshkent “Adolat” nashryoti 2010 yil.
7. „O'zbekiston Milliy Iqtisodiyoti” O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashryoti, Toshkent 2004 yil.
8. Sh.Sh.Shodmonov, U.V.G'ofurov. Iqtisodiyot nazariyasi, Toshkent, „Iqtisodiyot-Moliya” 2010 yil.
9. www.ziyonet.uz Kutubxonasining Iqtisodiyot va boshqaruv bo'limi
10. www.referatlar.uz Referatlar , Iqtisodiyot bo'limi
11. www.ref.com Referatlar, Iqtisodning 1-bo'limi
12. www.skachat.uz ma'lumotlar bazasi
13. www.xalqso'zi.uz Xalq so'zi gazetasi